



## TA'LIMNING YOSH PSIXOLOGIYASI TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI

**Xolmamatova Arofatxon Komiljon qizi**  
**Mustafoyeva Marjona Olimjon qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Gumanitar fanlar fakulteti  
O'zbek tili va adabiyot (kechki) yo'nalishi  
1- bosqich talabalari.

Email: xolmamatovaarofat7@gmail.com  
zulayhorahmatova633@gmail.com

**Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li**

Ilmiy rahbar:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15591896>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

### KEY WORDS

*yosh psixologiyasi, ta'lim, rivojlanish, pedagogika, ontogenez, psixik jarayonlar, intellekt, ta'lim jarayoni.*

### ABSTRACT

*Maqolada ta'limning yosh psixologiyasi taraqqiyotidagi o'rni muhokama qilinadi. Yoshlar rivojlanishining psixologik jihatlari, ta'lim tizimining ularga ta'siri va pedagogik usullarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh psixologiyasining ta'lim sohasidagi ahamiyati, shuningdek, o'quvchilar va talabalarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga yondashuvlar ko'rib chiqiladi.*

Yosh psixologiyasi insonning bolalikdan to yoshlik davrigacha bo'lgan rivojlanish dinamikasini, psixologik qonuniyatlarini va shaxsning shakllanish jarayonlarini o'rganadigan fan sohasi. Ta'lim tizimi yosh psixologiyasining amaliy qo'llanilishida muhim o'rin egallaydi, chunki u bolaning aqliy, hissiy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, yosh davrlari psixologiya kursi psixologiya ilmining muhim tarmog'i sifatida, inson psixik jarayonlarining ontogenezdagi psixologik xususiyatlarini va odam shaxsining ta'lim-tarbiya sharoitida psixik taraqqiyotining har bir davriga xos xususiyatlarini o'rganuvchi sohadir. Yosh davrlari psixologiyasi ta'lim va taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi, ta'limning tuzilishi, o'quvchilarning o'qish va bilish faoliyatini shakllantirish hamda tarbiya psixologiyasining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini barkamol inson sifatida shakllantirish kabi muhim muammolarni tadqiq etadi. Bunda, o'quv-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy ta'lim-tarbiya nazariyasining vazifalari, uning etnopsixologik xususiyatlari hamda ular tomonidan yoritilgan shaxs taraqqiyotini boshqarish imkoniyatlari o'rganiladi.

Uning muhim vazifalari - tinglovchilarda psixologik-pedagogik vaziyatlarni samarali rejalashtira olishga, aqliy va shaxsiy taraqqiyot bilimlarini unumli egallashga, turli yosh davrlarida psixik taraqqiyot qonunlarini to'g'ri anglab, psixotashxis tadqiqotlar olib borishga, o'quvchilarga individual yondasha bilishga, bola psixikasi taraqqiyotida turli noxush holatlarning oldini o'la bilishga, ota-onalar, o'z hamkasblari va bolalar bilan madaniyatli muomalada bo'lishga, psixologik

nazokatni to'g'ri shakllantirish kabi muammolarini ijobiy hal etishga qaratilgan.

Yosh davrlari psixologiyasi o'quv moduli umumiy psixologiya, falsafa, pedagogika, yosh fiziologiyasi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Uni o'rganish jarayonida kompyuter texnikasi, aqliy taraqqiyot testlari va boshqa usullardan keng foydalaniladi.

Ta'lim jarayoni bolaning: intellektual qobiliyatlarini, ijtimoiy va hissiyotlarini, shaxsning ma'naviy-axloqiy jihatlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Ta'lim bolalarning bilim olish, tafakkur qilish, muomala qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Rivojlanayotgan ong va tafakkur ta'lim orqali murakkablashadi va boyiydi. Ta'lim orqali yoshlar jamiyat qoidalari, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar haqida bilimga ega bo'ladilar. Bu esa ularning ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi. Tarbiya va ta'lim jarayoni bolaning xarakteri, qiziqishlari, motivatsiyasi va irodasini shakllantiradi. Bu esa shaxsiy rivojlanishning poydevorini yaratadi. Bundan tashqari, bilim va ko'nikmalarni o'rgatish jarayoni nafaqat intellektual, balki emosional sohalarni ham rivojlantiradi: o'z his-tuyg'ularini boshqarish, empatiyani rivojlantirish va boshqalar. Ta'limning samaradorligi uchun bolalarning yoshiga mos psixologik xususiyatlari e'tiborga olinadi. Masalan, boshlang'ich maktab yoshidagi bola uchun o'yin asosiy faoliyat turi bo'lsa, o'smirlar uchun mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Lev Vigotskiy ta'lim va psixologiya sohasida muhim nazariyalarni ilgari surgan. Uning "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, bola mustaqil bajara olmaydigan, ammo katta yoki bilimlroq shaxs yordamida bajara oladigan vazifalar mavjud. Bu zona ta'lim jarayonida bolaning rivojlanish salohiyatini aniqlash va uni qo'llab-quvvatlash uchun muhimdir.

Ta'lim jarayonida bolalarning yoshiga mos psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin asosiy o'quv faoliyati bo'lsa, o'smirlar uchun mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash rivojlanadi. Bu yondashuv ta'lim samaradorligini oshiradi.

### **Xulosa**

Ta'lim va yosh psixologiyasi bir-biriga uzviy bog'liq sohalardir. Insonning har bir rivojlanish bosqichida ta'lim psixik jarayonlarning shakllanishi va mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi. Bola va o'smirlarning yosh xususiyatlarini chuqur bilgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni ularning bilim olish, mustaqil fikrlash, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini samarali ta'minlaydi. Ta'lim, nafaqat intellektual rivojlanishga, balki emotsional va axloqiy kamolotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik faoliyatda yosh psixologiyasi bilimlariga tayangan holda, har bir bosqichning psixologik ehtiyoj va imkoniyatlariga mos yondashuv zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziyev E. Psixologiya Yosh davrlari psixologiyasi. T. 2002.
2. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. T. 2010
3. Vigotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
4. G'ozibekov, A. va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya asoslari. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2016.
5. Nurmatov, N. Pedagogik va yosh psixologiyasi. — Toshkent: "Ilm Ziyi", 2018.
6. Wikipedia.org — Lev Vygotsky maqolasi — Vigotskiy nazariyasi haqida umumiy ma'lumotlar.